

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA O‘SIMLIKLAR MUHOFAZASI VA KARANTIN MASALALARI (2017-2026 yy.)

Karoboyev Suxrob Mustafakulovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti o‘qituvchisi, suxrobsamvmi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida o‘simliklar karantini va himoyasi sohasida shakllangan huquqiy-me‘yoriy baza hamda institutsional islohotlar tahlil qilinadi. Vakolatli davlat organlari faoliyati, xalqaro hamkorlikning kengayishi va Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonining milliy fitosanitariya tizimiga ta‘siri yoritilib, global iqlim o‘zgarishlari sharoitida o‘simliklar salomatligi, biologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalarining dolzarbligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar. O‘simliklar karantini, o‘simliklar himoyasi, institutsional islohotlar, karantin nazorati, biologik xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, Jahon savdo tashkiloti.

PLANT PROTECTION AND QUARANTINE ISSUES IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN (2017-2026)

Abstract. This article analyzes the legal and regulatory framework and institutional reforms in the field of plant quarantine and protection in Uzbekistan during the years of independence. The activities of authorized state bodies, the expansion of international cooperation and the impact of the accession process to the World Trade Organization on the national phytosanitary system are highlighted, and the relevance of plant health, biological and food security issues in the context of global climate change is substantiated.

Keywords. Plant Quarantine, Plant Protection, Institutional Reforms, Quarantine Control, Biological Safety, Food Security, World Trade Organization.

ЗАЩИТА РАСТЕНИЙ И ВОПРОСЫ КАРАНТИНА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА (2017-2026 гг.)

Аннотация. В данной статье анализируется нормативно-правовая база и институциональные реформы, сформированные в Узбекистане в годы независимости в области карантина и защиты растений. Освещено влияние деятельности уполномоченных государственных органов, расширения международного сотрудничества и процесса вступления во Всемирную торговую организацию на национальную фитосанитарную систему, обоснована актуальность вопросов обеспечения здоровья растений, биологической и продовольственной безопасности в условиях глобального изменения климата.

Ключевые слова. Карантин растений, защита растений, институциональные реформы, карантинный контроль, биологическая безопасность, продовольственная безопасность, Всемирная торговая организация.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda ushbu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, institutsional islohotlar hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlarining kengaytirilishi o‘simliklar salomatligini ta‘minlash va fitosanitariya xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishlari, savdo hajmining ortishi va O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni sharoitida o‘simliklar karantini va himoyasi sohasidagi huquqiy asoslarni tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

2017-yil 30-avgust 5174-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni[2] va ushbu farmon asosida shu kuni qabul qilingan 3249-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi Prezident Qarori[3] ga asosan o‘simliklar karantini qoidalari va fitosanitariya normalarining bajarilishi ustidan davlat nazorati tizimini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida maqbul fitosanitariya sharoitlarini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni olib boruvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi va uning qoshida O‘simliklar karantini tizimini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etiladi. Ushbu Inspeksiya o‘simliklar karantini sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, iqtisodiyot tarmoqlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan karantin va boshqa xavfli zarakanundalar, o‘simliklar kasalliklari va begona o‘tlarning xorijiy davlatlardan O‘zbekiston hududiga kirib kelishdan himoya qilish, karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o‘simliklar kasalliklari va begona o‘tlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik va yo‘q qilishni tashkil etish, shuningdek, respublikaning ular mavjud bo‘lmagan hududlariga kirib borishining oldini olish kabi ishlar bilan shug‘ullangan.

Bundan tashqari, boshqa davlatlardan urug‘lar, o‘simliklar, o‘simlik xomashyosi va boshqa o‘simlik mahsulotlari hamda xalq iste‘moli mollari olib kiriladigan chegara maskanlarini belgilash ham Inspeksiya funksiyalaridan biri bo‘lgan.

2018-yil 9-iyulda “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi 484-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni[4] ga asosan yangi tahrirda “O‘simliklar karantini to‘g‘risida” gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmati tizimi aniq belgilandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘simliklar karantini sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta‘minlashi, uning qoshida O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi faoliyat yuritishi, hududiy bo‘linmalari esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari, tuman (shahar)lar o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limlari faoliyati nazarda tutilgan edi.

O‘zbekiston va MDH davlatlari o‘rtasida 2018-yil 1-sentyabrda “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ishtirokchi-davlatlarining O‘simliklar karantini bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashini tashkil etish to‘g‘risida ” bitim imzolandi. unga ko‘ra, MDH ishtirokchi-davlatlari o‘rtasida o‘simliklar karantini sohasida hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Kengash karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari hamda zararkunandalarning tarqalishining oldini olish bo‘yicha kelishilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, fitosanitariya axborotini almashish hamda karantin talablarini uyg‘unlashtirish vazifalarini amalga oshiradi.[5]

So‘ngi yillarda O‘simliklar himoyasiga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish doirasida O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tashkil etilgan bo‘lib, bu agentlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi “Respublikada o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6262-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5185-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi negizida tashkil etildi.[6] O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi – O‘zbekistonda o‘simliklarni himoya qilish, zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlarga qarshi kurashish sohasidagi asosiy vakolatli davlat organi hisoblanadi.

2023-yil 30-aprelda Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa atrof-muhit muhofazasi kuchaytirilgan bo‘lib, fuqarolarning ekologik huquqlari va davlatning majburiyatlari aniq belgilangan. Xususan, barcha uchun qulay atrof-muhitga ega bo‘lish, davlatning barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekologik siyosati hamda fuqarolarning tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyati mustahkamlandi.[1]

Qayd qilish kerakki, respublikamiz aholisining ortib borishi hamda eksport jarayonining jadallashishi tufayli yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu borada o‘simliklarni zararkunanda va kasalliklardan samarali va ekologik sof usullar yordamida himoya qilish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida yerlarni eroziyadan va qum ko‘chishidan muhofaza qilish, o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni kengaytirish, cho‘l va tog‘oldi hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish hamda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish orqali biologik xilma-xillikni saqlash chora-tadbirlari belgilangan. Shuningdek, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish, tabiiy yaylovlar va pichanzorlarni muntazam biobotanik tekshirish hamda hayvonot va o‘simlik dunyosidan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish ko‘zda tutilgan.[7]

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lishi milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, eksportni kengaytirish va xalqaro qoidalar asosida jahon bozorlariga chiqish uchun strategik ustuvor vazifa hisoblanadi. Hukumat a‘zolik jarayonini jadallashtirish, qonunchilikni JST normalariga

moslashtirish va savdo to'siqlarini kamaytirish bo'yicha faol choralarni (jumladan, 2023-yildagi PQ-181-sonli qaror[8] orqali) amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi milliy qonunchilikni xalqaro savdo normalari bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Ayniqsa, o'simliklar himoyasi va karantini sohasida muhim o'zgarishlar kutiladi. JSTning Sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar to'g'risidagi kelishuvi (SPS) talablariga muvofiq, fitosanitar choralari ilmiy asoslangan risk tahliliga tayangan holda belgilanishi, ularning savdoni asossiz cheklovchi vositaga aylanishiga yo'l qo'yilmasligi zarur bo'ladi. Bu esa o'simlik mahsulotlari importi va eksportida qo'llaniladigan talablarning aniqligi, shaffofligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, JSTga a'zolik o'simliklar karantini bo'yicha milliy me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar, xususan IPPC doirasida qabul qilingan qoidalar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Natijada fitosanitar nazorat, sertifikatlash va monitoring tizimlari takomillashib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi ortadi. Umuman olganda, mazkur islohotlar nafaqat savdo jarayonlarini liberallashtirishga, balki o'simliklar salomatligini himoya qilish, biologik xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror qishloq xo'jaligi rivojini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, so'ngi yillarda Yangi O'zbekistonda o'simliklar karantini va himoyasi tizimi bosqichma-bosqich takomillashib, ushbu sohada mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari asosida vakolatli davlat organlarining faoliyati yo'lga qo'yilib, fitosanitariya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yagona davlat siyosati shakllantirildi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikning kengayishi va O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni milliy fitosanitar qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ushbu islohotlar o'simliklar salomatligini himoya qilish, biologik xavfsizlikni mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "Yuridik adabiyotlar publish". 2023.
2. <https://lex.uz/mact/-3322443>
3. <https://lex.uz/mact/-3328124>
4. <https://lex.uz/docs/-3815502>
5. <https://lex.uz/docs/-4983917>
6. <https://gov.uz/oz/karantin/pages/about>
7. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>